

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK**M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova**

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiylar ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lif-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romançilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantic tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



УО'К: 81'1:81-11:81-13

MARGARET TETCHER VA TEREZA MEY NUTQLARINING LINGVISTIK TAHLILI**LINGUISTIC ANALYSIS OF THE DISCOURSES OF MARGARET THATCHER AND THERESA MAY****ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИСКУРСОВ МАРГАРЕТ ТЭТЧЕР И ТЕРЕЗЫ МЭЙ****Xamrakulova Ravshanoy Abdulaxatovna** 

Farg'ona davlat universiteti, "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada siyosiy diskurs tahlil qilingan bo'lib, uning obyekti sifatida Buyuk Britaniyaning bosh vazirlari, Margaret Tetcher va Tereza Meyning nutqlari olingan. Siyosiy arboblar faoliyati davomidagi vaziyat yoki madaniyatning ta'siri ularning nutqiga ta'sir qilishini o'rganishdan iboratdir. Bundan tashqari, ularning nutqida foydalanilgan modal fe'llar va gap tuzilishi qanday qilib vazirlarning siyosiy shaxsiyatlari hamda boshqaruvi uslubiga ta'sir etganligini misollar yordamida ifodalaydi.

Аннотация

В данной статье анализируется политический дискурс, объектом которого являются речи премьер-министров Великобритании, Маргарет Тэтчер и Терезы Мэй. Цель статьи заключается в изучении того, как ситуация или культура в период их деятельности влияли на их речь. Кроме того, примеры показывают, как использование модальных глаголов и структуры предложений в их речи повлияло на политические личности министров и их стиль управления.

Abstract

This article analyses political discourse by focusing on the speeches of Margaret Thatcher and Theresa May, the prime ministers of the United Kingdom. The goal is to study how the situation or culture during their tenure influenced their speech. Additionally, the examples demonstrate how the use of modal verbs and sentence structure in their speeches affected the ministers' political personas and management styles.

Kalit so'zlar: so'z tanlovi, nutq strategiyasi, siyosiy obraz, teatral uslub.**Ключевые слова:** выбор слов, стратегия речи, политический образ, театральный стиль.**Key words:** word choice, speech strategy, political image, theatrical style.**KIRISH**

Diplomatik aloqa xalqaro munosabatlар markazida turadi, bunda ko'pincha milliy manfaatlar, xavfsizlik va iqtisodiy aloqalar muhokama qilinadi. Ingliz tili, global diplomatik "lingua franca" sifatida, diplomatik amaliyotlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ingliz diplomatlari ko'pincha shartnomalarni muzokara qilish, ziddiyatlarni hal qilish va ittifоqlarni rivojlantirishda yetakchilik qiladi. Mazkur maqola diplomatlar tomonidan qo'llaniladigan nutq strategiyalarini lingvistik, xulqatvor va madaniyatga xos taktikalar jamlanmasi hamda diplomatik maqsadlarga erishishda foydalanilgan uslublarini o'rganishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Diskurs keng ma'noda, ma'lum bir kontekstda yuzaga kelgan har qanday og'zaki yoki yozma muloqotni anglatadi. Bu suhbatlar, nutqlar, yozilgan matnlar va hatto tasvirlarni o'z ichiga oladi. Shunga qaramasdan, diskurs faqat ma'lumot almashinuv vositasi emas, balki u ijtimoiy, siyosiy va madaniy kuchlar tomonidan shakllanadi va muloqotda ishtirok etayotganlarning kimliklarini hamda mafkuralarini aks ettiradi. Diskurs nafaqat haqiqatni aks ettiradi, balki uni faol ravishda quradi. [1] Atkinson o'zining "Our Masters' Voices: The language of politics" risolasida siyosiy til va nutqni quydagicha yetti turga bo'lib o'rgangan.[2] Birinchisi, "Til siyosiy qudratning vositasi" bo'lib uning aytishicha, siyosiy diskurs nafaqat fakt va siyosat haqidagi muloqot, balki qudrat hamda hukmronlikni idrok qilishdir. Olim izlanishlari orqali siyosiy arboblarning qay tarzda nutq, til birliklari, nutq aktlari muloqotni va jamiyat fikrini boshqarishini aniqlagan. "Siyosiy muloqotda tana harakatlarining o'rni" siyosiy rahbarlarning noverbal (og'zaki nutqqa xos

TILSHUNOSLIK

bo'Imagan) paralingvistik nutq tarkibini, ya'ni gavda tuzilishi, qo'l harakatlari, yuz ifodasi va nigohning ma'lumotga ta'sirini hamda shaxsning o'ziga ishonchini bildirishini aniqlagan. Olimning ta'kidlashicha, so'z kuchli ta'sir vositasi bo'lishiga qaramasdan, "body language" (tana tili) orqali ifodalananadigan muloqot turi siyosiy arboblarning aynan nutqi orqali nima xohlayotganlarini kuchliroq ko'rsatadi. "Siyosiy chiqish" tushunchasi ham Atkinsonning diqqatini jaib qilgan bo'lib, siyosiy muloqot "sahna ko'rinish"ning bir turiga, diplomatlarni esa aktyorlarga qiyoslagan. Bu orqali u siyosatning teatral ko'rinishiga urg'u bergen va "obraz yaratish, shaxsiy uslub va taqdim qilish" ni aniqlagan. Siyosatchilarning nutqini tahlil qilib, ularning omma qarshisida shaxsiy obrazni aniqlik bilan yaratish va natijada muntazam namoyon etishini aniqlagan. Bundan tashqari, Atkinson, "*Til va mafkuraning o'zaro bog'liqligi*" g'oyasini ilgari surgan bo'lib, unga ko'ra siyosiy nutqlar bevosita hosil bo'lmaydi, ular mafkuraviy g'oyani aks etadi va mustahkamlaydi. Diskurs tahlili orqali olim, jamoaviy tenglikni yaratish, ijtimoiy iyerarxiya va siyosiy hokimiyatni qonunlashtirishni ko'rsatadi. Shu tufayli siyosiy nutq nafaqat muloqot vositasi, balki mafkuraviy boshqaruv vositasi hisoblanadi. Shuningdek, olim ushbu izlanishlari orqali siyosiy muloqotda "*Madaniy kontekst*" tushunchasiga diqqatini qaratgan bo'lib, uning ta'kidlashicha, "Siyosiy nutq foydalanilgan ijtimoiy va madaniy muhitdan ta'sirlanib shakllanadi". Ba'zi bir so'zlarning yoki imo-ishoralarning ma'nosi tinglovchining madaniyatiga qarab turli ma'noga ega bo'lishi mumkin. Atkinsonning fikricha, "Siyosiy nutqqa ommaviy axborot vositalarining ham ta'siri mavjud bo'lib, siyosatchilar o'zlarining nutqini va tana harakatlarini tinglovchilarga ta'sir qilish uchun moslashtiradilar. Chunki ular radio, televideniya va matbuot orqali namoyish etgan siyosiy obraz ularning rahbar sifatidagi obro'siga ta'sir qilishini anglaydilar. Yuqorida aytib o'tilgan siyosiy nutqning o'ziga xos jihatlarini olim tomonidan o'rganilgan yana bir qo'shimcha turi bo'lib, u orqali siyosiy arboblar murakkab vaziyatlarni yumshatish, kuchli his-tuyg'ularni uyg'otish va birdamlik uchun ruhlantirishda - metafora, o'xshatish va mubolag'a – kabi nutq vositalarni qo'llashlarini aytib o'tgan.

Debora Kameron *Working with Spoken Discourse* (2001) nomli asarida og'zaki tilning turli ijtimoiy va ijtimoiy kontekstlardagi dinamikasini keng qamrovda tahlil qilgan. Bu asarda u, og'zaki muloqotning kundalik hayotda, ishda, ta'limdi va ommaviy axborot vositalarida qanday ishslashini o'rganadi va natijada diskurs tahlili sohasiga muhim hissa qo'shgan. Kameronning ishi, tilshunoslikning an'anaviy uslublarini yangilab, tilni faqat ma'lumot uzatish vositasi sifatida emas, balki kuch, ijtimoiy teng munosabatlar qurilishi jarayonlarida qanday ishslashini ko'rsatib bergen. Kameron og'zaki tilning o'zgaruvchan va interaktiv tabiatini ta'kidlab, har bir muloqotda ma'no real va o'zgaruvchan bo'lib, o'zaro munosabatning maxsus shartlariga bog'liq ekanini ta'kidlagan. Shu bilan birga, Kameron tilda kuch va hokimiyatning rolini tanqidiy tahlil qilib, an'anaviy tilshunoslik nazariyalarini tanqid qiladi. U tilni ijtimoiy amaliyot sifatida ko'rib chiqib, tilning ijtimoiy tengsizliklarni qanday takrorlashini va kuch munosabatlarini qanday ishlab chiqishini tahlil etgan. [3]

J.Holms til-nafaqat ma'lumot uzatish vositasi ekanligini, balki ijtimoiy tuzilmalarni mustahkamlovchi va ijtimoiy tenglikni shakllantiruvchi kuch sifatida qanday ishslashini "An introduction to Sociolinguistics" nomli manbada keltirgan. Shuningdek, u rasmiy va norasmiy muloqot uslublarining farqlarini tahlil qilib, bu uslublarning ijtimoiy maqom va hokimiyatni qanday ko'rsatayotganini o'rgangan. [4] F.Kermode, Shekspir o'z asarlarida jamiyat va siyosiy qatlamlarni qanday aks ettirishiga va tanqid qilishiga alohida e'tibor qaratgan. "*King Lear*" (*Qirol Lir*) va "*Julius Caesar*" (Yuliy Sezar) kabi asarlar hokimiyat, obro' va boshqaruv dinamikalarini, sadoqat, isyon va hokimiyatga korrupsiyani ta'sirlarini o'rgangan. Kermode, Shekspir tarixiy va badiiy voqealarni siyosiy qatlamlarning noaniqligini va ijtimoiy ierarxiyadagi insonlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntirish uchun qanday ishlatganini tahlil qilgan. [5]. Siyosiy arboblarning nutqini tahlil qilganda, ko'pincha mohirlik bilan muloqotni turli strategiyalar bilan boyitishlarini kuzatamiz. Muammoli vaziyat yuzaga kelganda asosan 3 xil nutq strategiyasi qo'llaniladi. Birinchisi, aybni tan olgandek ko'rsatib, o'zining kamchiligini avvalroq bajarilgan yaxshi xislatlari orqali ayyorlik bilan almashtirish. Ikkinchisi, bildirilgan vaziyatga nisbatan mardonavor tarzda o'zini teran fikrlari orqali himoya qilish va nihoyat uchinchisi, o'z kamchiligini tan olib bildirilgan muammolarni hal qilish uchun jazoni qabul qilish strategiyasi. Ushbu holatda o'ziga nisbatan qattiq chora ko'rilsa-da, tartibga rioya qilish va mavjud qoidalar ortidagi hukumatga bo'y sunish ko'riladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maqolada lingvistik tahlil metodi qo'llanilgan bo'lib, Tetcher va Mey nutqlarida ishlatilgan grammatik va til birliklari o'rganib, maqola ularning nutq uslublaridagi farqlarni ta'kidlaydi. Tahlil jumlalar murakkabligi va sintaksisi, modal fe'llar, nutq uslublari va lug'aviy ma'noga alohida e'tibor qaratgan. Har bir rahbarning nutqi faoliyat yuritgan davridagi siyosiy sharoitda ularning muloqot qilish uslublarini aks ettiruvchi misollar orqali ko'rib chiqilgan.

Gapning murakkab yoki soddaligi, notiqning obro'sini, siyosiy vaziyatlarni yengillashtirilishi yoki hissiyotlar ifodalanilishini anglatadi. M.Tetcher va T.Meyning nutqlarini sintaktik-qiyosiy tahlili orqali biz ularning kommunikativ ustunligi haqida fikrga ega bo'lamic.

M.Tetcher o'zining rasmiy, tartiblangan, murakkab va qo'shma gaplardan foydalanganligi bilan ajralib turgan bo'lib, bu uning nazorat qilish va aqliy qat'iyatini aks attirgan. Nutqdagi gap tuzilishi odatda SVO (subject-ega, verb-fe'l, kesim va object-to'ldiruvchi) tartibiga asoslangan bo'lib, ayrim hollardagina asosiy ma'noni kengaytirish uchun ergash gaplardan foydalangan. U ma'lumotni ta'sirini kuchaytirish maqsadida ko'p hollarda parallel strukturalar va gap bo'laklarini takroriy aytish bilan g'oyaviy tenglikka erishgan.

Masalan, Tetcherning 1980-yilda Konservativ partiya vakillari oldida namoyish etgan nutqida: "*Biz - nafaqat, bizni allaqachon qo'llab-quvvatlagan, balki bizni haqilgimizni anglamaganlarga ham vakillik qiladigan partiyamiz.*" [6]

Tereza Mey aksincha, Tetcherga qaraganda lo'nda va ochiq gaplardan foydalangan, bu esa uning boshqaruvga pragmatik yondashuvini bildirgan. Uning nutqi sodda bo'lib, ergash gaplar kamroq qo'llanilgan. Natijada, diskurs hamma uchun tushunarli va o'zlashtirilishi oson bo'lgan.

Masalan, 2017-yildagi Breksit borasidagi nutqida, "*Breksit –bu Breksit va biz bundan Titanik mashxurligiga erishamiz*". Ushbu jumla orqali siyosiy vaziyatni yumshatish va noaniqlikka sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etishga harakat qilgan. [7]

M.Tetcher nutqiga xos xususiyatning asosiy jihatni ma'suliyatni o'z zimmasiga olib ifoda etishi jihatidan ham T.Meyning nutqidan farq qilgan. M.Tetcher asosan "bajaraman" deya modal fe'llaridan foydalansa, T.Mey "qilishimiz kerak" deya ma'suliyatni demokratik usulda ommaga yuklaydi. *Masalan, 2016-yildagi Brexit referendumidan so'ng Mey shunday deya murojaat qilgan: "Biz xalqning ovoziga hurmat bilan qarashimiz kerak."* Bu yerda "kerak" modal fe'li uning qat'iyatini ko'rsatadi, ammo gapning mazmuni—demokratik jarayonlarga hurmat ko'rsatish—uning diplomatik uslubini aks ettiradi.

Nutq vositalari siyosatchilar tomonidan ijtimoiy fikrni shakllantirish, esda qoladigan bayonotlarni yaratish va tinglovchilar bilan hissiy bog'lanishni rivojlantirishda keng qo'llaniladi. Tetcher va Mey har biri o'zining siyosiy shaxsiyatiga mos nutq vositalaridan foydalangan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Margaret Tetcher ta'sirli, keng metaforalar va taqqoslashlardan foydalaniib o'zining g'oyalarini shakllantirgan. U ko'pincha antitezis va qarama-qarshiliklardan foydalangan, bu esa uning siyosatlari va raqiblarining siyosatlari orasidagi ideologik farqni ko'rsatardi. Uning nutqlari ko'pincha inklyuziv tilni o'z ichiga olgan bo'lib, asosan Britaniyaning buyukligi va u har doim oddiy odamlarning himoyachisi ekanligini nutqlari orqali ko'rsatgan.

Masalan, 1983-yilgi nutqida Tetcher shunday degan: "Konservatorlar hukumi Britaniyaga erkinlik berishi mumkin, Mehnat partiyasi esa, aksincha davlat og'irligi ostida uni bo'g'ar edi."

Tereza Meyning nutqlarini tahlil qilib, uning asosini iboralardan takroriy tarzda foydalananish bo'lgan. Buyuk Britaniyaning Yevropa ittifoqidan chiqish haqidagi bayonotlar bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshiliklarga duch kelgan holda, uning nutqlari jamoatchilikka tasalli berish va milliy hamjihatlikni saqlashga qaratilgan. Bundan tashqari, Mey ko'pincha ruhiyatni ko'taruvchi so'zlar bilan murojaat qilgan, ayniqsa milliy inqiroz yoki noaniqlik davrlarida.

Masalan, Meyning 2017-yilgi Konservativlar partiyasi konferensiyasidagi nutqida u "*Men boshqarmoqchi bo'lgan mamlakat*" degan iborani tez-tez takrorladi, bu uning Britaniyaning kelajagiga bo'lgan shaxsiy majburiyatini va rahbarligini milliy birlik bilan bog'lashni ko'rsatadi.

Margaret Tetcherning tili ko'pincha jangovar, siyosiy va ideologik qarama-qarshiliklarga mos kelgan. U Folkland urushi va iqtisodiy islohotlarga oid nutqlarida harbiy metaforalardan foydalangan.

Masalan, "Biz mamlakatimizning kelajagi uchun kurashmoqdamiz va Britaniya uchun g'alaba qo'lga kiritilgunga qadar dam olmaymiz."

TILSHUNOSLIK

Tereza Meyning tili siyosiy muzokaralar orasida murosa qilishga yo'naltirilgan edi. Uning nutqlari barqarorlik va kelishuvni ta'kidlardi, shu bilan birga, jamoa ishining muhimligini urg'u berilgan.

Masalan, 2018-yilgi Brexit kelishuvi bo'yicha nutqida Mey "hamkorlik" so'zini ishlatgan, bu esa Yevropa Ittifoqi bilan muzokaralar orqali qarama-qarshilikdan ko'ra, birgalikdagi yondashuvni ifodalaydi: "Biz Yevropa Ittifoqi bilan kelajakdagi hamkorlikni o'rnatishga intilamiz, o'zaro hurmat asosida." [7]

XULOSA

Matnlarning tahlili natijalarida Tetcher va Mey tomonidan ishlatilgan nutq strategiyalar o'rtasida sezilarli farqlar aniqlandi. Tetcher nutqlari murakkab gap tuzilishidan, majburiyatni anglatuvchi modal fe'llar va jangavor nutq bilan ajralib turadi. Bu uning iqtisodiy islohotlar va ideologik to'qnashuvlar davrida o'zini ishonchli va qat'iyatli rahbar sifatida ko'rsatganini aks ettiradi. Boshqa tomondan, Mey nutqlari sintaksis jihatdan soddaroq, nozik so'zlar va mantiqiy uzilishlarni bartaraf etish strategiyalari bilan ajralib turadi, bu esa uning Britaniyaning Yevropa Ittiqfoqidan chiqish jarayonining murakkabliklari bilan kurashish va siyosiy parchalanish holatida milliy birlikni saqlashga bo'lgan ehtiyojini aks ettirgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Atkinson, M. (1992). *Our Masters' Voices: The Language and Body Language of Politics*. Routledge.
2. Cameron, D. (2001). *Working with Spoken Discourse*. Sage Publications.
3. Holmes, J. (2013). *An Introduction to Sociolinguistics*. Routledge.
4. Kermode, F. (1999). *The Shakespearean Imagination*. Harper Collins.
5. Mohammed Solih, S. (2023). Discourse and discourse analysis
6. Thatcher, M. (1980). "The Lady's Not for Turning" Speech, Conservative Party Conference.
7. May, T. (2017). Brexit Speech, Conservative Party Conference.